

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT-EKOTIZIMIGA TA'SIRI	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSİYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKILOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



DAVLAT SEKTORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	80
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIVASI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	84
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	87
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MOLIVAVIY INKLYUZIYANI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	90
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	93
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI	96
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	



MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI

Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat haqi auditining nazariy-uslubiy asoslari hamda uni xalqaro audit standartlari (ISA) talablariga moslashtirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda audit risklari, ichki nazorat tizimi, riskga asoslangan yondashuv va auditorlik dalillarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, Big Four kompaniyalari tajribasi hamda zamonaviy raqamli audit texnologiyalarining amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mehnat haqi auditi, xalqaro audit standartlari, ISA, riskga asoslangan yondashuv, COSO modeli, audit risklari, Big Four, kasbiy etika.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of payroll auditing and its adaptation to the requirements of International Standards on Auditing (ISA). The study analyzes audit risks, internal control systems, the risk-based approach, and the importance of audit evidence. In addition, the experience of Big Four companies and the practical aspects of modern digital audit technologies are highlighted.

Keywords: payroll audit, International Standards on Auditing, ISA, risk-based approach, COSO framework, audit risks, Big Four, professional ethics.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы аудита оплаты труда и вопросы его адаптации к требованиям международных стандартов аудита (ISA). Проанализированы аудиторские риски, система внутреннего контроля, риск-ориентированный подход и значение аудиторских доказательств. Также рассмотрены опыт компаний Big Four и практические аспекты современных цифровых технологий аудита.

Ключевые слова: аудит оплаты труда, международные стандарты аудита, ISA, риск-ориентированный подход, модель COSO, аудиторские риски, Big Four, профессиональная этика.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat haqi auditi korxonalarning moliyaviy holati ishonchliligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Big Four kompaniyalarining hisobotlariga ko'ra, umumiy audit budjetida mehnat haqi auditining ulushi 12–18 foizni tashkil etadi (Deloitte, 2023). Oxirgi besh yil ichida mehnat haqi sohasida aniqlangan xatoliklar ulushi umumiy moliyaviy xatoliklarning 23 foizini tashkil qilgan.

O'zbekiston Respublikasida audit faoliyatining rivojlanishi 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son¹ Qonunning yangi tahriri asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu qonun xalqaro audit standartlari (ISA)ning O'zbekistonda qo'llanilishini majburiy deb belgilaydi. Shu bois mehnat haqi auditining ISA talablariga mos tarzda tashkil etilishi dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, keys-stadi (case study), ekspert baholash, tizimli tahlil, induksiya, deduksiya usullaridan foydalanilgan. Empirik ma'lumotlar sifatida "Global Komsco Daewoo" MCHJ xorijiy korxonasida 2019–2023-yillar davomida o'tkazilgan audit tekshiruvlari natijalari ishlatilgan.

Xalqaro audit standartlari (ISA) 200, 240, 315, 330, 500, 520, 530 va 700 mehnat haqi auditining nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. ISA 200 "Umumiy maqsadlar" standartiga muvofiq auditor quyidagi prinsiplarga rioya qilishi shart: kasbiy shubha, kasbiy malaka, etik xulq-atvor, sifatga asoslangan yondashuv va obyektivlik (1-jadval).

1 <https://lex.uz/docs/-5307886>

1-jadval. Mehnat haqi auditida uchraydigan asosiy risklar²

Risk turi	Uchrash (%)	Moliyaviy oqibat (mln. so'm)	Risk darajasi (1-10)	Boshqaruv chorasi
Soxta xodimlar	15	120-250	9	Biometrik tizim
Ish vaqtini manipulyatsiyalash	28	65-180	7	Avtom. soat hisobi
Mukofotlarni noto'g'ri hisoblash	22	40-100	6	Formulani tasdiqlash
Soliq xatolari	18	85-220	8	Soliq tekshiruvi
Elektron ma'lumot manipulyatsiyasi	8	200-500	9	Kiberxavfsizlik

Jadvaldan ko'rinadiki, mehnat haqi auditidagi eng riskli toifalar sifatida soxta xodimlar (risk darajasi 9), elektron ma'lumot manipulyatsiyasi (9) va soliq xatolari (8) ko'rsatilgan. Uchrash ehtimolligi bo'yicha birinchi o'rinda ish vaqtini manipulyatsiyalash (28%) turadi.

Audit riskining uch komponentli modeliga ko'ra: $AR = IR \times CR \times DR$, bunda AR — umumiy audit riski, IR — shaxsiy (ichki) risk, CR — nazorat riski, DR — aniqlash riski (Arens va boshq., 2019). Auditor rejalashtirish bosqichida ushbu ko'rsatkichlarni aniq belgilab, audit protseduralari hajmini mos ravishda kengaytirishi lozim.

Xalqaro audit standartlari (ISA) tizimining shakllanishi 1977-yilda IFAC (International Federation of Accountants) xalqaro buxgalterlar federatsiyasining ta'sis etilishi bilan boshlangan. Bugungi kunda ISA standartlari dunyoning 140 dan ortiq mamlakatida qo'llanilib, ular audit faoliyati sifatini ta'minlash bo'yicha yagona asosni tashkil etadi. ISA standartlarining xalqaro miqyosda joriy etilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va solishtirilishiga xizmat qiladi.

AXS 315 (2019-yil tahriri) "Material xatolik risklarini aniqlash va baholash" standarti riskka asoslangan audit yondashuvining zamonaviy talablarini belgilaydi. Mazkur standartga muvofiq auditor korxonaning ichki nazorat tizimini to'liq o'rganishi, jarayonlarning hujjatlashtirilganlik darajasini baholashi hamda IT-tizimlarning ishonchligini tekshirishi zarur. Mehnat haqi auditida ayniqsa muhimi — xodimlar soni, ishdan bo'shatilganlar, yangi qabul qilinganlar singari ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilishdir.

O'zbekistonda mehnat haqi auditini rivojlantirish istiqbollari, bir tomondan, xalqaro standartlarga moslashish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, milliy xususiyatlar, jumladan, Soliq kodeksi talablari va mehnat qonunchiligi normalari ham inobatga olinishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yildagi islohotlari ISA standartlarining rasmiy o'zbek tilidagi tarjimalarini tasdiqlash orqali milliy audit tizimining xalqaro darajaga chiqishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantiradi: birinchidan, mehnat haqi auditining nazariy-uslubiy asoslari xalqaro audit standartlari (ISA) talablari asosida shakllantirilmoqda; ikkinchidan, auditda uchraydigan risklarning yetti yo'nalish bo'yicha tasnif etilishi uning samaradorligini oshiradi; uchinchidan, Big Four kompaniyalarining ilg'or tajribasi O'zbekiston sharoitida moslashtirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro audit standartlarining joriy etilishi bo'yicha muhim qadamlar amalga oshirildi. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 12 ta ISA standartining rasmiy o'zbek tilidagi tarjimasi tasdiqlanib, milliy audit tizimiga kiritildi. Ushbu ishlar natijasida O'zbekiston auditorlari xalqaro amaliyotga yaqinlashish imkonini oldilar.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, mehnat haqi auditining nazariy-uslubiy asoslari xalqaro audit standartlari talablariga mos tarzda rivojlanib bormoqda. Riskka asoslangan yondashuv, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, kasbiy etika normalarining mustahkamlanishi audit sifatini sezilarli oshirmoqda. O'zbekistonda mazkur sohani takomillashtirish uchun xalqaro ilg'or tajribani o'rganish va uni milliy sharoitda samarali qo'llashga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arens, A.A., Elder, R.J., Beasley, M.S. (2019). Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 17th ed. New York: Pearson.
2. Bychkova, S.M. (2008). Международные стандарты аудита Москва: ТК Велби, Проспект.
3. Deloitte. (2023). Global Human Capital Trends 2023. New York: Deloitte Insights.
4. Dodge, R. (1995). The Concise Guide to Auditing Standards. London: Chapman & Hall.
5. EY. (2023). Future of Work Reimagined Survey. EY Global.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100